
PROFESSIONAL SPORTCHILARIMIZ E'ZOZDA

Farg'ona shahar, "Barkamol" mahalla fuqarolar yig'inida istiqomat qiluvchi Go'zaloy Abduqahhorova bir necha yillardan beri professional stol tennisi bilan shug'ullanib keladi.

Bir nechta nufuzli xalqaro musobaqalarning g'olibi bo'lgan Go'zaloy Yoshlar ishlari agentligi Farg'ona shahar bo'limiga maxsus tayyorlanadigan stol tennisi raketkasi xarid qilishda yordam berishni so'rab murojaat qilgan edi.

Yoshlar yetakchisi tomonidan to'plangan hujjatlarga muvofiq Go'zaloy Abduqahhorovaga tennis raketkasi xarid qilish to'g'risidagi masala xalq deputatlari shahar Kengashiga kiritildi. Bugun Go'zaloyning quvonchi cheksiz. Unga Yoshlar ishlari shahar bo'limi tomonidan professional stol tennisi ustalari uchun maxsus tayyorlanadigan qimmatbaho raketka topshirildi.

Go'zaloy va uning bugungi taassurotlari haqida keyingi dasturlarda batafsil ma'lumot beramiz.

Bizni kuzatishda davom eting...

Yoshlar ishlari agentligi Farg'ona shahar bo'limi axborot xizmati

2022-10-07 00:23:38